V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ALLAMBERGENOV ALLAYAR XASANBAEVICH

OKTONION VA OKUBO ALGEBRALARIDA LOKAL DIFFERENSIALLASHLAR VA LOKAL AVTOMORFIZMLAR

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UDK: 512.554.38

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

ALLAMBERGENOV ALLAYAR XASANBAEVICH

OKTONION VA OKUBO ALGEBRALARIDA LOKAL DIFFERENSIALLASHLAR VA LOKAL AVTOMORFIZMLAR

01.01.06 – Algebra

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/FM1137 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika instituti va Matematika institutilarida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www. kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kudaybergenov Karimbergen Kadirbergenovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Arzikulov Farxodjon Nematjonovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Turdibaev Rustam Mirzalievich fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 21-yanvar kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (195-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Disertatsiya avtoreferati 2024 yil 27-dekabr kuni tarqatiladi.
(2024 yil 27-dekabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

U.A.Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.,
katta ilmiy xodim

A.R.Hayotov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Algebraning har xil sohalariga, jumladan kompozitsion algebralarga, ya'ni ularning kriptografiya, kompyuter ilmlari va boshqada sohalarda tadbiq qilish imkoniyatlari kengligi sababli qiziqish ortib bormoqda. Noassosiativ algebralar nazariyasining muammolari koʻp yillar davomida dolzarb boʻlib qolmoqda. Umuman olganda, kompozitsion algebralarni oʻrganish matematikaning muhim va dolzarb sohasi boʻlib, u fundamental va amaliy tadqiqotlarda keng tadbiqlariga hamda potensial rivojlanish istiqbollariga ega.

Hozirgi kunda differensiallashlar nazariyasi bilan bir qatorda, operator algebralarida lokal va 2-lokal differensiallashlar nazariyasi ham muhim hisoblanadi. Oxirgi yigirma yil davomida fon Neyman algebralari, C^* - algebralarida lokal va 2-lokal differensiallashlar nazariyasini oʻrganish boʻyicha samarali natijalarga erishildi. Noassosiativ algebralar jumladan, oktonion algebralari va Okubo algebralari uchun lokal va 2-lokal differensiallashlarni oʻrganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega boʻlgan amaliy matematika, informatika, raqamli iqtisodiyot fanlariga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, noassosiativ algebralar va ularning operatorlariga doir fundamental tadqiqotlarning rivojlanishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu fundamental tadqiqotlar doirasida chekli oʻlchamli noassosiativ algebralarda lokal va 2-lokal differensiallashlarini oʻrganish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Ilmiy ishning asosiy vazifasi[1] "Algebra va funksional analiz" ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida tadqiqot olib borishdan iborat. Ilmiy natijalarni tegishli fan sohasida qoʻllash uchun chekli oʻlchamli noassosiativ algebralar nazariyasini ishlab chiqish belgilangan vazifaning bajarilishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2789 «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida»gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682 «Innovatsion gʻoyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi va 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387 «Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi "Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida"gi 292-sonli qarori.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda klassik tizimlarning assosiativ bo‘lmagan analoglari matematika va fizikaning ko‘plab sohalarida qo‘llanilishi bilan qiziqish uyg‘otmoqda. Li va Leybnits algebralari kabi ba’zi noassosiativ algebralar uchun ham lokal operatorlar, xususan lokal va 2-lokal differensiallashlar (avtomorfizmlar) tushunchalari tadqiqotning asosiy ob’ektlariga aylandi. Ushbu tushunchalarga aloqador asosiy muammolar har bir lokal (yoki 2-lokal) differensiallash va avtomorfizm oddiy ma’noda differensiallash va avtomorfizm bo‘ladigan shartlarni topish, shuningdek, differensiallash bo‘lmagan (mos ravishda avtomorfizm) lokal va 2-lokal differensiallashga ega algebralar sinflarini aniqlashdan iboratdir. Ta’kidlash joizki, noassosiativ algebralar uchun lokal akslantirishlarni o‘rganish, 2014 yildagi AQShning Kaliforniya shtatida bo‘lib o‘tgan AQSh-O‘zbekiston konferensiyasidagi professor Sh.A.Ayupov va professor E.Zelmanovlar (Kaliforniya universiteti, San-Diego) o‘rtasidagi suhbatdan so‘ng boshlangan. Xarakteristikasi nolga teng algebraik yopiq maydon ustida chekli o‘lchamli Li algebralarida lokal va 2-lokal differensiallashlar va avtomorfizmga oid yurtimizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilib, dastlabki natijalar Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov, I.S.Raximov va Z.Chen va D.Wanglarga tegishlidir. Sh.A.Ayupov va K.K.Kudaybergenovlar tomonidan chekli o‘lchamli yarim sodda Li algebralaridagi har bir lokal differensiallashning oddiy ma’noda differensiallash ekanligi isbotlangan va differensiallash bo‘lmagan lokal differensiallashga ega chekli o‘lchamli nilpotent Li algebralariga misollar keltirdilar.

Sh.A.Ayupov va K.K.Kudaybergenovlar tomonidan xarakteristikasi >5 algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustida klassik sodda $\mathfrak{g}$ Li algebrasi, maydon xarakteristikasi n ning bo‘luvchisi bo‘lgandagi $\mathfrak{g} = \mathfrak{psl}_n(\mathbb{F})$ algebrasi bundan istisno bo‘lganda har qanday lokal differensiallashlar differensiallashlar bo‘lishini isbotladilar. Shuningdek, $char\mathbb{F} = 2,3$ bo‘lgan maydonlardagi ayrim oddiy Li algebralaridagi lokal differensiallashlar tavsiflangan va ularda differensiatsiyallash bo‘lmagan lokal differensiallashlar mavjud ekanligi isbotlangan. Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov, I.S.Raximovlar tomonidan yarim sodda Li algebrasidagi har bir 2-lokal differensiallash oddiy ma’noda differensiallash ekanligi hamda o‘lchami ikkidan katta ixtiyoriy nilpotent Li algebrasida differensiallash bo‘lmagan 2-lokal differensiallash mavjudligi isbotlandi.

Sodda Li algebralar uchun 2-lokal avtomorfizmlar Z.Chen va D. Wanglar tomonidan o‘rganila boshlanib, ular tomonidan A_l, D_l yoki $E_k, (k = 6,7,8)$ algebralar uchun har qanday 2-lokal avtomorfizm avtomorfizm ekanligi isbotlangan. Keyinchalik, Sh.A.Ayupov va K.K.Kudaybergenovlar tomonidan ushbu natija umumlashtirilib, xarakteristikasi nol bo‘lgan algebraik yopiq maydon ustida berilgan ixtiyoriy chekli o‘lchamli yarim sodda Li algebrasining har qanday 2-lokal avtomorfizmi avtomorfizm ekanligini isbotlandi. Bundan tashqari, ixtiyoriy chekli o‘lchamli nilpotent Li algebrasida avtomorfizm bo‘lmagan 2-lokal avtomorfizm mavjudligi ko‘rsatildi. Sh.A.Ayupov va K.K.Kudaybergenovlar tomonidan ba’zi chekli o‘lchamli sodda Li va Leybnits algebralarining lokal avtomorfizmlari ham o‘rganildi. T.Beker, J.Eskobar, C.Salas va R.Turdibaevlar uch o‘lchamli sodda Li algebrasining barcha lokal avtomorfizmlari to‘plami barcha avtomorfizmlar va anti-avtomorfizmlar gruppasi bilan usma-ust tushishini ko‘rsatishgan bo‘lsa, keyinchalik, M.Kostantini sodda Li algebrasidagi chiziqli akslantirishning lokal avtomorfizm bo‘lishi uchun uning avtomorfizm yoki anti-avtomorfizm bo‘lishi zarur va yetarli ekanligini isbotladi. Li superalgebralaridagi lokal va 2-lokal avtomorfizmlar va differensiallashlarga doir natijalarni X.Chen, Y.Vang va J.Nanlarning ishlarida ko‘rish mumkin. Sh.A.Ayupov, K.K.Kudaybergenov va B.A.Omirovlar sodda Leybnits algebralarida lokal va 2-lokal differensiallash va avtomorfizmlarni o‘rganib, Li algebralaridagi kabi natijalarni isbotladilar. Noassosiativ algebralarda lokal va 2-lokal differensiallashlar bilan bog‘liq natijalardan, tabiiy ravishda oktonion algebrasi va Okubo algebralarida lokal va 2-lokal differensiallashlarning tuzilishi haqida savol kelib chiqadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining “Operator algebralarining avtomorfizmlari, cheksiz o‘lchamli noassosiativ algebralar va super algebralarning klassifikatsiyalari” (F-FA-2021-423) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oktonion algebrasida lokal va 2-lokal differensiallashlar va avtomorfizmlari hamda etti o‘lchamli sodda Malsev algebrasi va Okubo algebrlarining lokal va 2-lokal differensiallashlarini tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Oktonion algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlari va avtomorfizmlarini o‘rganish;

7 o‘lchamli sodda Malsev algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlar va avtomorfizmlarini tavsiflash;

Okubo algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlarini o‘rganish.

Tadqiqotning ob’ekti: oktonion algebrasi, 7 o‘lchamli sodda Malsev algebrasi va Okubo algebrasi.

Tadqiqotning predmeti: ba’zi noassosiativ algebralarda differensiallash bo‘lmagan lokal va 2-lokal differensiallashlari va avtomorfizmlarining mavjudligi hamda lokal va 2-lokal differensiallashlar sinflari bilan oddiy ma’noda differensiallashlarning sinflari o‘zaro bog‘liqligi masalalari.

Tadqiqotning usullari: Dissertatsiyada noassosiativ algebralar nazariyasi usullari, invariantlar nazariyasi usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xarakteristikasi nolga teng bo‘lgan maydonda berilgan oktonion algebrasining lokal avtomorfizmlari tasniflangan hamda uning ixtiyoriy 2-lokal differensiallashi va avtomorfizmlari mos ravishda differensiallash va avtomorfizm ekanligi isbotlangan;

haqiqiy sonlar maydonida berilgan oktonion algebrasi va etti oʻlchamli sodda Malsev algebrasi sodda noassosiativ algebralarida differensiallash boʻlmagan lokal differensialllash mavjud ekanligi isbotlangan;

etti oʻlchamli sodda Malsev algebrasining lokal va 2-lokal avtomorfizmlari tasniflangan;

Okubo algebrasining har qanday lokal va 2-lokal differensiallashlari differensiallash ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Oktonion algebralarida lokal, 2-lokal differensiallashlar va differensiallashlar orasidagi bogʻliqlik aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalar algebra, differensiallashlar nazariyasi hamda matematik mulohazalarning qatʼiyligi bilan asoslangan. Olingan natijalar matematik jihatdan toʻgʻri isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan natijalar noassotsiativ algebra nazariyasiga muhim hissa qoʻshadi, ularning simmetriya va strukturaviy xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Ushbu dissertatsiyada ishlab chiqilgan usullar Leybnits algebralari, Malsev algebralari va boshqa Li algebralari umumlashmalariga oʻxshash boshqa algebra sinflarida lokal va 2-lokal differensiallashlar hamda avtomorfizmlarni oʻrganishga qoʻllanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati olingan natijalar noassosiativ algebralarning differensiallashlar nazariyasida qoʻllanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Oktonion va Okubo algebralarida lokal differensiallashlar va lokal avtomorfizmlar boʻyicha olingan natijalar asosida:

oktonion algebralarning lokal differensiallashlari va avtomorfizmlari tasniflaridan «Algebra, geometriya va analizning sintetik usullari bilan funksional fazolar operatorlarini oʻrganish va uning axborot-taʼlimiy taʼminoti» mavzusidagi xorijiy ilmiy-tadqiqot loyihasida funksional fazolar operatorlarini tavsiflashda qoʻllanilgan (Janubiy matematika institutining 2024 yil 29-oktyabrdagi №9-sonli maʼlumotnomasi, Rossiya Federatsiyasi). Ilmiy natijalarni qoʻllanishi operatorlarni algebra va analizning sintetik usullari yordamida tavsiflash imkonini bergan;

haqiqiy sonlar maydonida berilgan oktonion algebrasi va etti oʻlchamli sodda Malsev algebrasi lokal differensiallashlarida AP23489146 raqamli «Tenzorlarning funksional invariantlari» mavzusidagi xorijiy loyihada assosiativ va nokommutativ algebralarining differensiallashlarini tahlil qilishda foydalanilgan (Matematika va matematik modellashtirish institutining 2024 yil 4-noyabrdagi №01-06/186-sonli maʼlumotnomasi, Qozogʻiston). Ilmiy natijalarni qoʻllanishi assosiativ algebralarning differensiallashlarini va nokommutativ Novikov algebralarini strukturaviy xossalarni isbotlashni imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni quyidagi xalqaro va respublika miqyosida oʻtkazilgan ilmiy anjumanlarda muhokama qilingan: «Tabiiy fanlarni rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining oʻrni» (Nukus, 2021), «Matematika va axborot tizimlarining dolzarb masalalari» (Urganch, 2021), «Operator algebralar, noassosiativ tuzilmalar va turdosh masalalar» (Toshkent, 2022), «Matematik analiz va uning zamonaviy matematik fizikaga qo‘llanilishi xalqaro konferensiyasi» (Samarqand, 2022), «Matematik modellashtirish va axborot texnologiyalarining dolzarb masalalari xalqaro konferensiyasi» (Nukus, 2023), «Amaliy matematika, matematik modellashtirish va informatikaning dolzarb muammolari» (Nukus, 2024), «Raqamli texnologiyalardan foydalanib ta’lim sifatini oshirishning dolzarb muammolari xalqaro konferensiyasi» (Nukus, 2024).

Dissertatsiyada olingan natijalar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Matematika institutining «Operatorlar algebralari va ularning tadbiqlari», O‘zbekiston Milliy universitetining «Zamonaviy algebra va uning tatbiqlari» ilmiy seminarlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy, 3 tasi respublika jurnallarida va 7 ta tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qism, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissetatsiyaning umumiy hajmi 82 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Oktonion va Okubo algebralari haqida asosiy ma’lumotlar” deb nomlangan birinchi bobida noassosiativ algebralar nazariyasidan zarurli tushunchalar va yordamchi natijalar berilgan. XIX-asr o‘rtalarida Gamilton [2] tomonidan kvaternionlarning kashf qilinishidan ko‘p o‘tmay Keli [3] va Graves [4] tomonidan oktonionlar kashf qilinadi. Ular haqiqiy sonlar maydoni ustida chekli o‘lchamli bo‘lish amaliga ega algebralarining to‘rtta ma’lum turlaridan birini ifodalaydi: haqiqiy sonlar, kompleks sonlar, kvaternionlar va oktonionlar. Oktonionlarni o‘rganish nafaqat o‘ziga xos algebraik xossalari, balki matematika va fizikaning turli sohalari bilan chuqur aloqadorligi tufayli ham qiziqish uyg‘otadi. Oktonionlar algebrasi haqida ko‘proq ma’lumotni Baezning [5] ishida topish mumkin.

1-ta’rif. Agarda birlik elementga ega C algebrasida xosmas N kvadratik forma mavjud bo‘lib, bu kvadratik forma uchun

$$N(xy) = N(x)N(y) \quad (x, y \in C)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda C algebrasi $\mathbb{K}$ maydoni ustida kompozitsion algebra deyiladi.

Kompozitsion algebralarga misol sifatida $\mathbb{R}-$ haqiqiy sonlar maydoni, $\mathbb{C}-$

[2] W.R. Hamilton, On Quaternions; or a new System of Imaginaries in Algebra, Phil. Mag. ser.3 25 489 (1845).
[3] A. Cayley, On Jacobi's Elliptic Functions, in reply to the Rev. Brice Bronwin and on Quaternions, The London and Edinburgh philosophical magazine and journal of science 3, 210 (1845).
[4] W.R. Hamilton, Note regarding the researches of John T. Graves, Esq., Transactions of the Royal Irish Academy, 21, 338 (1848).
[5] Baez J .C. The octonions. Bulletin of the American Mathematical Society, 39 (2002) p. 145 – 205.

kompleks sonlar maydoni, $\mathbb{H}$ – kvaternionlar algebrasi va $\mathbb{O}$ – oktonionlar algebrasini keltirish mumkin. Bulardan dastlabki uchtasi assosiativ algebralar bo‘lsa, $\mathbb{O}$ algebrasi alternativ noassosiativ algebra bo‘ladi.

C algebrasidagi N kvadratik forma norma deyiladi va u bilan bog‘liq bo‘lgan $\langle \cdot , \cdot \rangle$ bichiziqli formani esa skalyar ko‘paytma deymiz. Agarda C ning chiziqli qism fazosi skalyar ko‘paytmaga nisbatan nosingulyar bo‘lsa, u holda chiziqli qism fazo nosingulyar deyiladi. C kompozitsion algebrasining qism algebrasi yoki kompozitsion qism algebra deganda, C algebraning birlik elementini va ko‘paytirish amaliga nisbatan yopiq bo‘lgan nosingulyar D chiziqli qism fazo tushiniladi.

Kompozitsion C algebrasida $a = \langle x,e\rangle e + x,\ \ x \in C$ elementining qo‘shmasi $\overline{a} = \langle x,e\rangle e - x,\ \ x \in C$ ko‘rinishidagi element bo‘ladi.

Aytaylik, $\mathbb{F}$ xarakteristikasi nolga teng maydon bo‘lsin. Agarda A algebrasining ixtiyoriy x, y elementlari uchun

$$x(xy) = (xx)y,\ \ (xy)y = x(yy)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda A algebrasi alternativ algebra deyiladi.

Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebrasi $\mathbb{F}$ maydoni ustida oktonionlar algebrasi bo‘lsin, ya’ni $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ multiplikativ N kavdratik formaga ega 8 o‘lchamli unital alternativ algebra bo’lib, $N : \mathbb{O}_{\mathbb{F}} \to \mathbb{F}$ akslantirish uchun quyidagilar o‘rinli:

- har qanday $\lambda \in \mathbb{F},\ x \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ uchun $N(\lambda x) = \lambda^2 N(x)$;
- quyidagi

$$\langle x, y\rangle = \frac{1}{2}\big(N(x+y) - N(x) - N(y)\big)$$

ko‘rinishda aniqlangan $\langle \cdot,\cdot \rangle : \mathbb{O}_{\mathbb{F}} \times \mathbb{O}_{\mathbb{F}} \to \mathbb{F}$ akslantirish bichiziqlidir;

- ixtiyoriy $x, y \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ uchun $N(xy) = N(x)N(y)$;
- har qanday $y \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ uchun $\langle x, y\rangle = 0$ bo‘lsa, u holda $x = 0$.

Agar $\langle x, y\rangle = 0$ bo‘lsa, u holda $x, y \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ elementlari ortogonal deyiladi ($x \perp y$ ko‘rinishda belgilanadi). $x \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ elementi uchun uning ortogonal to‘ldiruvchisi

$$x^{\perp} = \left\{ y \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}} : x \perp y \right\}$$

to‘plamidan iborat bo‘ladi.

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebrasining $\{x_1, \ldots, x_n\}$ sistemasi ortonormal sistema deyiladi, agarda quyidagi shart o‘rinli bo‘lsa:

$$\langle x_i, x_j\rangle = \begin{cases} 1, & \text{agarda } i = j, \\ 0, & \text{agarda } i \neq j. \end{cases}$$

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ oktonionlar algebrasining tipi I deyiladi, agarda har qanday i uchun $e_i^2 = -1$ bo‘lgan $\{1, e_1, \ldots, e_7\}$ ortonormal bazis mavjud bo‘lsa, aks holda tipi II deyiladi. Agar $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebraning tipi II bo‘lsa, u holda algebra ajraluvchan algebra bo‘lib, $\{1, e_1, \ldots, e_7\}$ ortonormal bazisi uchun quyidagilar bajariladi:

• agar $i \le 3$ bo‘lsa $e_i^2 = -1$, aks holda $e_i^2 = 1$;

• $1, e_1, e_2, e_3$ chiziqli qobig‘i $\mathbb{F}$ maydoni ustida $\mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ kvaternionlar algebrasiga izomorf bo‘ladi.

Birlik elementi $e_0 = 1$ ga teng tipi I bo‘lgan oktonionlar algebrasini qaraymiz. Ko‘paytirish qoidasini $e_1 e_2 = e_4$ teng deb hisoblab va quyidagi qoida orqali aniqlash mumkin:

$$e_i e_j = -e_j e_i,\ i \ne j,$$
$$e_i e_j = e_k \Rightarrow e_{i+1} e_{j+1} = e_{k+1},$$
$$e_i e_j = e_k \Rightarrow e_{2i} e_{2j} = e_{2k},$$

bu yerda qo‘shish va ko‘paytirish 7 moduli bo‘yicha amalga oshiriladi va $1 \le i, j, k \le 7$.

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebraning tipi I bo‘lganligi uchun $\langle \cdot, \cdot \rangle$ bichiziqli formani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\langle x, y \rangle = \sum_{i=0}^{7} \alpha_i \beta_i,$$

bu yerda $x = \sum_{i=0}^{7} \alpha_i e_i,\ \ y = \sum_{i=0}^{7} \beta_i e_i \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafda Okubo algebrasi haqida asosiy tushunchalarni keltiramiz. Okubo algebrasi birinchi bo‘lib yaponiyalik olim Susumo Okubo [6] tomonidan haqiqiy va kompleks sonlar maydoni ustida tasniflangan. Undan keyin A. Elduk va X. Myunglar[7] S. Okuboning natijalarini ixtiyoriy $\mathbb{F}$, $char\,\mathbb{F} \ne 2$ maydoni uchun, keyin esa $char\,\mathbb{F} = 2$ uchun umumlashtirgan.

2-ta’rif. Aytaylik, $\mathcal{S}$ $*$ ko‘paytirish amali va n normaga ega kompozitsion algebra bo‘lsin. Agar normaning qutbiy shakli assosiativ bo‘lsa, ya’ni har qanday $x, y, z \in \mathcal{S}$ uchun

$$n(x * y, z) = n(x, y * z) \qquad (1)$$

tenglik bajarilsa, $\mathcal{S}$ kompozitsion algebrani simmetrik kompozitsion algebra deyiladi.

3-ta’rif. Xarakteristikasi 3 dan farq qiladigan $\mathbb{F}$ maydon ustida $(\mathcal{O}, *, n)$ – simmetrik kompozitsion algebra Okubo algebrasi deb ataladi.

$(\mathcal{S}, *, n)$ xosmas n kvadratik formaga ega algebra bo‘lsin. U holda n multiplikativ bo‘lib, uning qutbiy shakli assosiativ bo‘ladi, shunda va faqat shundagina, agar ixtiyoriy $x, y \in \mathcal{S}$ uchun

$$(x * y) * x = n(x) y = x * (y * x) \qquad (2)$$

bajarilsa.

---

[6] Okubo S. Pseudo-quaternion and pseudo-octonion algebras. Hadronic J. 1 (1978).

[7] Elduque, A., Myung, H.C. (1990). On Okubo algebras. In From Symmetries to Strings: Forty Years of Rochester Conferences, Das, E. (ed.). World Science Publishing, River Edge, 299– 310.

Agar $*$ ko‘paytirish amalini $x*y=\overline{x}\,\overline{y}$ ko‘rinishda kiritsak, u holda $(\mathcal{S},*,n)$ algebra para-Gurvis algebrasi deyiladi va uning $e=1$ birlik elementi para-birlik element deyiladi.

1-teorema. Aytaylik, $(\mathcal{S},*,n)$ xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan algebraik yopiq maydon ustidagi simmetrik kompozitsion algebra bo‘lsin. U holda bu algebra izomorfizm aniqligida $\mathbb{F}$ maydon ustidagi para-Gurvis algebrasi yoki Okubo algebrasi bo‘ladi.

1-natija. Aytaylik, $(\mathcal{S},*,n)$ xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan algebraik yopiq maydon ustida va $\dim\mathcal{S}\geq 4$ simmetrik kompozitsion algebra bo‘lsin. U holda bu algebra izomorfizm aniqligida $\mathbb{F}$ maydon ustidagi para-Gurvis algebrasi yoki Okubo algebrasi bo‘ladi.

Endi S. Okubo ta’rifiga yaqin xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydon ustida Okubo algebrasini kiritamiz. $\mathcal{R}=M_3(\mathbb{F})$ matritsalar algebrasini qaraylik va $\mathbb{F}$ maydon 1 ning primitiv ω,ω^2 kubik ildizlarini o‘z ichiga olsin. $\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F})$ da ko‘paytirish amalini quyidagicha aniqlaylik:

$$x*y=\omega xy-\omega^2 yx-\frac{\omega-\omega^2}{3}\mathrm{tr}(xy)1. \tag{3}$$

Boshqacha qilib aytganda, $x*y$ bu $\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F})$ da $\mathcal{R}=\mathbb{F}1\oplus\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F})$ yoyilmaga nisbatan $\omega xy-\omega^2 yx$ ning proeksiyasi bo‘ladi. Har qanday $x\in\mathcal{R}$ element Keli-Gamilton tenglamasini qanoatlantiradi:

$$x^3-\mathrm{tr}(x)x^2+s(x)x-\det(x)1=0,$$

bu yerda $s(x)-$ kvadratik forma. Agar maydon uchun $char\,\mathbb{F}\neq 2$ bo‘lsa, u holda $s(x)=\frac{1}{2}\left(\mathrm{tr}(x)^2-\mathrm{tr}\left(x^2\right)\right)$ bo’ladi, agar $s(x,y)$ – $s(x)$ ning qutbiy shakli bo‘lsa, ya’ni

$$s(x,y)=s(x+y)-s(x)-s(y)$$

bo’lsa, u holda

$$s(x,y)=\mathrm{tr}(x)\mathrm{tr}(y)-\mathrm{tr}(xy).$$

Bu munosabat maydon xarakteristikasi 2 ga teng holda ham o‘rinli. Xususan, har qanday $x,y\in\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F})$ uchun $s(x,y)=-\mathrm{tr}(xy)$. $\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F})$ da matritsa izi xosmas bo‘lganligi uchun $s(x)$ kvadratik forma ham xosmas bo‘ladi.

$s(x,y)=-\mathrm{tr}(xy)$ bo‘lganligidan

$$(x*y)*x=s(x)y \text{ va } x*(y*x)=s(x)y$$

tengliklari o‘rinli ekan degan xulosaga kelamiz. Shuning uchun $\left(\mathfrak{sl}_3(\mathbb{F}),*,s\right)$ algebrasi (2) bo‘yicha simmetrik kompozitsion algebra hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Oktonionlar algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlari va avtomorfizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida haqiqiy sonlar maydoni ustida oktonionlar algebrasining lokal differensiallashlarining umumiy ko‘rinishi keltiriladi.

Aytaylik, A algebra bo‘lsin (assosiativ bo‘lishi shart emas). $D:A\to A$

chiziqli operator uchun ixtiyoriy $a,b\in A$ elementlarda $D(ab)=D(a)b+aD(b)$ munosabat o‘rinli bo‘lsa, u holda D chiziqli operatorga A algebrasining differensiallashi deyiladi. A algebraning barcha differensiallashlar fazosini $Der(A)$ orqali belgilaymiz. Agar ixtiyoriy $a\in A$ elementi uchun $D_a : A\to A$ differnsiallash $D_a(x)=ax-xa,\ x\in A$ ko’rinishda aniqlangan bo‘lsa, u holda D_a ichki differensiallash deyiladi.

Agar ixtiyoriy $x,y\in A$ elementlar uchun $\Phi(xy)=\Phi(x)\Phi(y)$ tenglik o’rinli bo’lsa, u holda $\Phi : A\to A$ chiziqli biyeksiyaga avtomorfizm deyiladi.

Bizning isbotlarimizda oktonionlar algebrasining differensiallashining umumiy ko‘rinishi kerak bo‘lmaganligi uchun biz ulardan faqat to‘rttasini keltiramiz.

Har bir $i\neq j\in\{1,\ldots,7\}$ uchun $\Delta_{i,j}$ orqali $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ ning chiziqli akslantirishini belgilaymiz va basis elementlariga ta’siri quyidagicha:

$$\Delta_{ij}(e_i)=e_j,\ \Delta_{ij}(e_j)=-e_i,\ \Delta_{ij}(e_k)=0,\ k\neq i,j. \tag{4}$$

Quyidagi chiziqli akslantirishlar differensiallash bo‘ladi:

$$\Delta_{12}+\Delta_{75},\ \Delta_{35}+\Delta_{76},\ \Delta_{36}+\Delta_{57},\ \Delta_{37}+\Delta_{65}. \tag{5}$$

$\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ ning har qanday $x\in\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ elementi uchun D_x differensiallash topilib, $\Delta(x)=D_x(x)$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda $\Delta\colon\mathbb{O}_{\mathbb{R}}\to\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ chiziqli akslantirish lokal differensiallash deyiladi.

$\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ algebrasining barcha lokal differensiallashlar fazosini $LocDer(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})$ bilan belgilaymiz.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafning asosiy natijasi bo‘lgan teoremani keltiramiz.

2-teorema. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ haqiqiy sonlar maydoni ustida oktonionlar algebrasi bo‘lsin. $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ dagi Δ chiziqli akslantirishi matritsasi birinchi satr va birinchi ustuni nollardan iborat bo‘lgan kososimmetrik matritsa bo‘lgandagina va faqat shundagina lokal differensiallash bo‘ladi. Xususiy holda, $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ dagi $LocDer(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})$ lokal differensiallashlar fazosi Li qavslari orqali kiritilgan $\mathfrak{so}_7(\mathbb{R})$ Li algebrasiga izomorfdir.

2-teoremadan shuni aniqlash mumkinki $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ algebrada ixtiyoriy $\Delta_{i,j}$ $(1\leq i\neq j\leq 7)$ akslantirish lokal differensiallash bo‘ladi, bu yerda $\Delta_{i,j}$ – (4) formula bo‘yicha aniqlangan chiziqli akslantirish.

2-teoremadan haqiqiy sonlar maydoni ustidagi oktonionlar algebrasida differensiallash bo‘lmagan lokal differensiallashlar mavjud ekanligi haqida quyidagi natija kelib chiqadi.

2-natija. Quyidagi tenglik o‘rinli:

$$LocDer(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})=Der(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})\oplus\operatorname{span}\{\Delta_{1,2},\Delta_{2,3},\Delta_{3,4},\Delta_{4,5},\Delta_{5,6},\Delta_{6,7},\Delta_{7,1}\}. \tag{6}$$

Xususan, yuqoridagi tenglik $LocDer(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})/Der(\mathbb{O}_{\mathbb{R}})$ faktor fazosining o‘lchami 7 ga teng ekanligini ko‘rsatadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida oktonionlar algebrasida chiziqli akslantirishning lokal avtomorfizm bo‘lishining zarurli va yetarli shartlari aniqlandi.

Agar har qanday $x \in A$ uchun shunday Φ_x (x ga bog‘liq) avtomorfizm topilib, $\Delta(x) = \Phi_x(x)$ o‘rinli bo‘lsa, u holda Δ chiziqli akslantirish lokal avtomorfizm deb ataladi.

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ tipi I oktonionlar algebrasi bo‘lsin. $\langle \cdot, \cdot \rangle$ bichiziqli formani quyidagicha aniqlaymiz:

$$\langle x, y \rangle = \sum_{i=0}^{7} \alpha_i \beta_i,$$

bu yerda $x = \sum_{i=0}^{7} \alpha_i e_i, \;\; y = \sum_{i=0}^{7} \beta_i e_i \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$.

$$x = x_0 e_0 + \sum_{k=1}^{7} x_k e_k$$

oktonionning qo‘shmasi

$$\overline{x} = x_0 e_0 - \sum_{k=1}^{7} x_k e_k$$

ko‘rinishda bo‘ladi.

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebrada element qo‘shmasi involyusiya bo‘lib, $\overline{xy} = \overline{y}\,\overline{x}$ tenglik o‘rinli bo‘ladi.

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ da Tr izi $Tr(x)e_0 = x + \overline{x} \in \mathbb{F}e_0$ ko‘rinishda aniqlanadi.

Aytaylik, $\mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ kvaternionlar algebrasi $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebraning qism algebrasi bo‘lsin. $\mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ markaziy sodda va assosiativ bo‘lganligi uchun Skolem-Noter teoremasi bo‘yicha $\mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ dagi har bir avtomorfizm ichki avtomorfizm bo‘ladi.

Aytaylik, $a \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$, $\langle a, a \rangle = 1$ elementi $\mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ ga ortogonal bo‘lsin. U holda $\mathbb{O}_{\mathbb{F}} = \mathbb{H}_{\mathbb{F}} \oplus \mathbb{H}_{\mathbb{F}} a$ bo‘ladi. Ushbu $\langle c, c \rangle = \langle p, p \rangle = 1$ shartni qanoatlantiruvchi $c, p \in \mathbb{H}_{\mathbb{F}}$ elementlarini olaylik.

Quyidagi ko‘rinishda aniqlangan $\Phi_{c,p} : \mathbb{O}_{\mathbb{F}} \to \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ chiziqli akslantirish

$$\Phi_{c,p}(x + ya) = cxc^{-1} + \left(pcyc^{-1}\right)a, \;\; x + ya \in \mathbb{H}_{\mathbb{F}} \oplus \mathbb{H}_{\mathbb{F}} a. \tag{7}$$

$\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ da avtomorfizm bo‘ladi.

Aytib o‘tishimiz kerakki, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ ning barcha $Aut\left(\mathbb{O}_{\mathbb{F}}\right)$ avtomorfizmlar gruppasi $SO(7, \mathbb{F})$ ortogonal gruppasiga izomorf bo‘lgan G_2 tipli gruppasi bo‘ladi. Xususan, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ dagi ixtiyoriy Φ avtomorfizm matritsasi ortogonal matritsaga ega, ya’ni har qanday $x, y \in \mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ uchun

$$\langle \Phi(x), \Phi(y) \rangle = \langle x, y \rangle. \tag{8}$$

Quyidagi teorema ushbu paragrafning asosiy natijasidir.

3-teorema. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ xarakteristikasi nol bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi va Δ – $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ ning chiziqli akslantirishi bo‘lsin. U holda Δ

akslantirish $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ da lokal avtomorfizm bo‘lish uchun u birni o‘z o‘rnida qoldiruvchi va matritsasi ortogonal bo‘lishi zarur va yetarli. Xususan, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ dagi $LocAut(\mathbb{O}_{\mathbb{F}})$ barcha lokal avtomorfizmlar gruppasi $O(7,\mathbb{F})$ gruppasiga izomorf bo‘ladi.

Quyidagi natija o‘rinli.

3-natija. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ xarakteristikasi nol bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi va Δ – $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ dagi chiziqli akslantirish bo‘lsin. U holda Δ akslantirish $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ da lokal avtomorfizm bo‘lishi uchun u birni o‘z o‘rnida qoldiruvchi izometriya bo‘lishi zarur va yetarli.

Uchinchi paragrafda xarakteristikasi nolga teng bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydon ustida $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ oktonionlar algebrasida 2-lokal differensiallashlar o‘rganilib, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ da har qanday 2-lokal differensiallash oddiy ma’noda differensiallash bo‘lishi isbotlangan.

Aytaylik, A algebrasi $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi ixtiyoriy algebra bo‘lsin. $\Delta: A\to A$ (chiziqli bo‘lishi shart emas) akslantirishi berilgan bo‘lib, algebraning ixiyoriy $x,y\in A$ elementlari uchun shunday $D_{x,y}: A\to A$ (x,y ga bog‘liqli) differensiallash topilib $\Delta(x)=D_{x,y}(x)$, $\Delta(y)=D_{x,y}(y)$ tengliklar bajarilsa, u holda Δ akslantirishga 2-lokal differensiallash deyiladi.

Quyidagi teorema ushbu paragrafning asosiy natijasi hisoblanadi.

4-teorema. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ xarakteristikasi nolga teng bo‘lgan algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustida oktonionlar algebrasi bo‘lsin. U holda $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ dagi ixtiyoriy 2-lokal differensiallash differensiallash bo‘ladi.

To‘rtinchi paragrafda algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustida oktonionlar algebrasining ixtiyoriy 2-lokal avtomorfizmi avtomorfizm ekanligini isbotlangan. Haqiqiy sonlar maydoni ustida oktonionlar algebrasidagi akslantirishning 2-lokal avtomorfizm bo‘lishining zarur va yetarli shartlar topilgan.

Aytaylik A algebra bo‘lsin. $\Delta: A\to A$ (chiziqli bo‘lishi shart emas) akslantirishi berilgan bo‘lib, algebraning ixiyoriy $x,y\in A$ elementlari uchun shunday $\Phi_{x,y}: A\to A$ (x,y ga bog‘liqli) avtomorfizm topilib, $\Delta(x)=\Phi_{x,y}(x)$, $\Delta(y)=\Phi_{x,y}(y)$ tengliklar bajarilsa, u holda Δ akslantirishga 2-lokal avtomorfizm deyiladi.

5-teorema. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ xarakteristikasi nolga teng bo‘lgan algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustida oktonionlar algebrasi bo‘lsin. U holda $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ dagi ixtiyoriy 2-lokal avtomorfizmi avtomorfizm bo‘ladi.

6-teorema. Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ haqiqiy sonlar maydoni ustida oktonionlar algebrasi va Δ – $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ algebradagi akslantirish bo‘lsin. U holda Δ 2-lokal avtomorfizm bo‘lishi uchun, u birni o‘z o‘rnida qoldiruvchi va matritsasi ortogonal bo‘lishi zarur va yetarli. Xususan, $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ dagi lokal avtomorfizmlar va 2-lokal avtomorfizmlar gruppasi teng bo‘ladi.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, Sh.A.Ayupov, A.Elduk va

K.K.Kudaybergenovlarning[8] ishida ixtiyoriy maydon ustida Keli algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlari hamda avtomorfizmlari tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Malsev va Okubo algebralarining lokal va 2-lokal differensiallashlari”** deb nomlangan uchinchi bobida sodda noassosiativ algebralar bo‘lgan haqiqiy sonlar maydoni ustida $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ oktonionlar algebrasi va $M_7(\mathbb{R})$ Malsev algebralarida differensiallash bo‘lmagan lokal differensiallash mavjud ekanligi ko‘rsatiladi.

Malsev algebralari 1955 yilda A.I. Malsev tomonidan kiritilgan. Li algebralarining assosiativ algebralar bilan bog‘liq bo‘lgani kabi bu algebralar ham alternativ algebralar bilan bog‘liq: agarda A alternativ algebra bo‘lsa, u holda $[x,y]=xy-yx$ ko‘paytirish amali aniqlangan $A^{(-)}$ algebra Malsev algebrasidir.

$\mathbb{F}$ maydon ustidagi $(A,\circ)$ algebrasida ko‘paytirish amali antikommutativ va

$$J(x,\, y,\, xz)=J(x,\, y,\, z)x,$$

tenglik bajarilsa, u holda bunday algebra Malsev algebrasi deyiladi, bu yerda $J(x,y,z)=(xy)z+(yz)x+(zx)y$ ifoda x,y,z elementlarning yakobiani.

Aytaylik, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ – $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi bo‘lsin va $\circ$ ko‘paytirish amalini quyidagicha aniqlaymiz:

$$x\circ y=\frac{1}{2}(xy-yx),\;\; x,\, y\in\mathbb{O}_{\mathbb{F}}.$$

U holda $(\mathbb{O}_{\mathbb{F}},\circ)$ Malsev algebrasi bo‘ladi.

Ixtiyoriy $x\in\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ uchun $e_0\circ x=0$ ekanligini hisobga olib, $M_7(\mathbb{F})=\mathbb{O}_{\mathbb{F}}/\{e_0\}$ faktor algebrasini qaraymiz. $M_7(\mathbb{F})$ algebrasi $\{e_1,\dots,e_7\}$ bazis elementlarga ega sodda Malsev algebrasi bo‘ladi va ko‘paytirish amali quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned}
&e_1e_2=2e_2,\;\; e_1e_3=2e_3,\;\; e_1e_4=2e_4,\\
&e_1e_5=-2e_5,\;\; e_1e_6=-2e_6,\;\; e_1e_7=-2e_7,\\
&e_2e_3=2e_7,\;\; e_3e_4=2e_5,\;\; e_4e_2=2e_6,\\
&e_5e_6=-2e_4,\;\; e_6e_7=-2e_2,\;\; e_7e_5=-2e_3,\\
&e_2e_5=e_1,\;\; e_3e_6=e_1,\;\; e_4e_7=e_1,
\end{aligned}$$

bu yerda qoldirilib ketilgan ko‘paytmalar antisimmetrik yoki nolga teng.

A. Sagl[9] ishidan ma’lumki, $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ oktonionlar algebrasining har qanday differensiallashi $M_7(\mathbb{F})$ algebrasida ham differensiallash bo‘ladi va aksincha. Aynan, agar $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ algebrasining D differensiallashining matritsaviy ko‘rinishi quyidagicha bo‘lsa:

$$D=\begin{pmatrix} 0 & \mathbf{0}\\ \mathbf{0}^t & D_1\end{pmatrix},$$

bu yerda $\mathbf{0}=(0,0,0,0,0,0,0)$, D_1 – $\mathbb{F}$ maydonda o‘lchami 7×7 matritsa va t

[8] Ayupov Sh.A., Elduque A., Kudaybergenov K.K. Local derivations and automorphisms of Cayley algebras. Journal of Pure and Applied Algebra. 227 (2023), 107277

[9] Sagle A. Malcev algebras. Transactions of the American Mathematical Society. 101. (1961), p. 426-458.

transponirlash, u holda D_1 matritsa $M_7(\mathbb{F})$ algebrasida differensiallash bo‘ladi. Aksincha, agar D_1 – $M_7(\mathbb{F})$ algebrasining differensiallashi bo‘lsa, u holda yuqorida aniqlangan D chiziqli akslantirish $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ algebrasining differensiallashini aniqlaydi. Shundan kelib chiqib, huddi shunday $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ algebrasining lokal differensiallashlari (2-lokal differensiallashlari) va $M_7(\mathbb{F})$ Malsev algebrasining lokal differensiallashlari (2-lokal differensiallashlari) orasida moslik o‘rnatish mumkin.

2- va 5-teoremalardan quyidagi natijalarni olamiz.

7-teorema. Aytaylik, $M_7(\mathbb{R})$ haqiqiy sonlar maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi $\mathbb{O}_\mathbb{R}$ bilan assotsirlangan Malsev algebrasi bo‘lsin. $\Delta : M_7(\mathbb{R}) \to M_7(\mathbb{R})$ chiziqli akslantirish lokal differensiallash bo‘lishi uchun uning matritsasi kososimmetrik matritsa bo‘lishi zarur va yetarli.

8-teorema. $M_7(\mathbb{F})$ algebrasi xarakteristikasi nolga teng algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustidagi $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ oktonionlar algebrasi bilan bog‘langan Malsev algebrasi bo‘lsin. U holda $M_7(\mathbb{F})$ da ixtiyoriy 2-lokal differensiallashi differensiallash bo‘ladi.

A. Elduk va X. Myung[10] ishlaridan ma’lumki, $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ oktonionlar algebrasining har bir avtomorfizmi $M_7(\mathbb{F})$ algebrasida ham avtomorfizmni aniqlaydi va aksincha. Aniqrog‘i, agar Φ – $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ da avtomorfizm bo‘lsa, u holda $\Phi|_{M_7(\mathbb{F})}$ akslantirishni chegaralash bu $M_7(\mathbb{F})$ Malsev algebrasida avtomorfizm bo‘ladi. Aksincha, agar Ψ – $M_7(\mathbb{F})$ algebrasining avtomorfizmi bo‘lsa, u holda Ψ ning

$$\Phi(\lambda e_0 + x) = \lambda e_0 + \Psi(x),\ \lambda \in \mathbb{F},\ x \in M_7(\mathbb{F}),$$

aniqlangan kengayttirmasi $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ da avtomorfizmdir. Shuning uchun, $\mathbb{O}_\mathbb{F}$ oktonionlar algebrasining lokal (2-lokal) avtomorfizmlari va $M_7(\mathbb{F})$ Malsev algebrasining lokal (2-lokal) avtomorfizmlari orasida shunga o‘xshash moslik o‘rinli bo‘ladi.

3-, 5- va 6-teoremalardan quyidagi natijalarga erishamiz.

9-teorema. Aytaylik, $M_7(\mathbb{F})$ xarakteristikasi nolga teng $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi bilan assotsirlangan Malsev algebrasi bo‘lsin. $\Phi : M_7(\mathbb{F}) \to M_7(\mathbb{F})$ chiziqli akslantirish lokal avtomorfizm bo‘lishi uchun uning matritsasi ortogonal bo‘lishi zarur va yetarli.

10-teorema. Aytaylik $M_7(\mathbb{F})$ xarakteristikasi nolga teng algebraik yopiq $\mathbb{F}$ maydon ustidagi oktonionlar algebrasi bilan bog‘liq bo‘lgan Malsev algebrasi bo‘lsin. U holda $M_7(\mathbb{F})$ da ixtiyoriy 2-lokal avtomorfizmi avtomorfizm bo‘ladi.

11-teorema. $M_7(\mathbb{R})$ haqiqiy sonlar maydoni ustidagi oktonionlar algebrasi $\mathbb{O}_\mathbb{R}$ bilan assotsirlangan Malsev algebrasi bo‘lsin. U holda $\Phi : M_7(\mathbb{R}) \to M_7(\mathbb{R})$ akslantirish 2-lokal avtomorfizm bo‘lishi uchun u chiziqli va ortogonal matritsaga

---

[10] Elduque A., Myung H. Ch. Mutations of alternative algebras. Mathematics and its Applications. 278. (1994), p. 92-135.

ega bo‘lishi zarur va yetarli.

Uchinchi bobning ikkinchi va uchinchi paragraflarda biz xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan maydon ustida Okubo algebrasining lokal va 2-lokal differensiallashlarini ko‘rib chiqamiz. Okubo algebrasining ixtiyoriy lokal va 2-lokal differensiallashlari differensiallash bo‘lishi isbotlangan.

12-teorema. $\mathcal{O}$ xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydon ustida Okubo algebrasi bo‘lsin. U holda $\mathcal{O}$ algebrasining har qanday lokal differensiallashi differensiallash bo‘ladi.

13-teorema. $\mathcal{O}$ xarakteristikasi 3 dan farqli bo‘lgan $\mathbb{F}$ maydon ustida Okubo algebrasi bo‘lsin. U holda $\mathcal{O}$ algebrasida ixtiyoriy $\Delta : \mathcal{O} \to \mathcal{O}$ 2-lokal differensiallashi differensiallash bo‘ladi.

XULOSA

Dissertatsiya oktonion algebrasi va Okubo algebrasining lokal differensiallashlari va avtomorfizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1) haqiqiy sonlar maydoni ustidagi oktonionlar algebrasining lokal differensiallashlari o‘rganilgan va $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ oktonion algebrasining ixtiyoriy 2-lokal differensiallashlari differensiallashlar ekanligi isbotlangan;

2) xarakteristikasi nolga teng $\mathbb{F}$ maydoni ustidagi oktonion algebrasining lokal avtomorfizmlari o‘rganilgan va $\mathbb{O}_{\mathbb{F}}$ ning ixtiyoriy 2-lokal avtomorfizmi avtomorfizm ekanligi isbotlangan;

3) sodda noassosiativ algebralar bo‘lgan haqiqiy sonlar maydoni ustidagi $\mathbb{O}_{\mathbb{R}}$ oktonion algebrasi va $M_7(\mathbb{R})$ Malsev algebrasi differensiallash bo‘lmaydigan lokal differensiallashlarga ega ekanligi isbotlangan;

4) 7 o‘lchamli sodda Malsev algebrasining lokal va 2-lokal avtomorfizmlari o‘rganilgan;

5) Okubo algebrasining har qanday lokal va 2-lokal differensiallashlari differensiallashlar ekanligi isbotlangan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ

АЛЛАМБЕРГЕНОВ АЛЛАЯР ХАСАНБАЕВИЧ

ЛОКАЛЬНЫЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАНИЯ И АВТОМОРФИЗМЫ АЛГЕБР ОКТОНИОНОВ И АЛГЕБР ОКУБО

01.01.06 – Алгебра

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/FM1137.

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте и Институте математики.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (http://kengash.mathinst.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Кудайбергенов Каримберген Кадирбергенович** доктор физико-математических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Арзикулов Фарходжон Нематжонович** доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник
	Турдибаев Рустам Миршалиевич доктор философии по физико-математическим наукам (PhD), старший научный сотрудник
Ведущая организация:	**Национальный университет Узбекистана**

Защита диссертации состоится 21 января 2025 года в 16:00 на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И.Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 195). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9. Тел.: (+99871) 207-91-40).

Автореферат диссертации разослан 27 декабря 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от 27 декабря 2024 года).

У.А.Розиков
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

Ж.К.Адашев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

А.Р.Хаётов
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире растет интерес к различным областям алгебры, таким как теория композиционных алгебр, из-за ее возможных применений в криптографии, компьютерных науках и других областях. Проблемы теории неассоциативных алгебр продолжают оставаться актуальными в течение многих лет. В целом, изучение композиционных алгебр представляет собой важную и актуальную область математики, которая имеет широкие приложения и потенциальные перспективы для развития как в фундаментальных, так и в прикладных исследованиях.

В настоящее время, наряду с теорией дифференцирований, важной считается теория локальных и 2-локальных дифференцирований на операторных алгебрах. В последние два десятилетия наблюдается плодотворное развитие теории локальных и 2-локальных дифференцирований на алгебрах фон Неймана, C^*-алгебрах на неассоциативных алгебрах. Следовательно описание локальных и 2-локальных дифференцирования на композиционных алгебрах и симметрических композиционных алгебрах является одним из целевых направлений научных исследований.

В нашей стране усиленное внимание уделяется прикладной математике, информатике, цифровой экономике, которые имеют научное и практическое применение фундаментальных наук. В частности, особое внимание уделяется развитию фундаментальных исследований по неассоциативным алгебрам и их операторам. В рамках этого фундаментального исследования получены важные результаты в изучении локального и 2-локального дифференцирований на конечномерных неассоциативных алгебрах. В обеспечении реализации решений [1], определенных в качестве основных задач и направлений деятельности, важно проводить исследования на уровне международных стандартов по приоритетным направлениям «Алгебра и функциональный анализ», а также при разработке теории дифференцирований на операторных алгебрах.

